



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Ilxom G'ulomov

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi o'qituvchisi

KASBIY STANDARTI MAKTAB O'QITUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI

Annotatsiya. Tizimdagi yangi strategiyasi mohiyati shuki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tahsil oladigan har bir yosh, har bir shaxs hayotda o'z o'rnini topishi, avvalo, o'zi daromad qilishi, shu orqali iqtisodiy yuksalishga xizmat qilishi, o'z mehnati bilan hayoti farovonligini ta'minlab, pirovard natijada jamiyat rivojlanishiga munosib hissa qo'shishi lozim. Mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni aniqlash takomillashtirilmoqda va aynan ish o'rinlari uchun o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashning xalqaro tajribalarga asoslangan yangi mexanizmlari joriy etilmoqda.

Kalit so'zlar: Kasbiy standart, real ehtiyoj, kasbiy faoliyat, kompetensiya.

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integrasiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizasiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish,

ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'qituvchilarning mavqeini oshirish, ularni daromad manbai bilan ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining zamonaviy talablar asosida jixozlash hamda yangi ta'lim tizimining strategiyasi, asosiy ustuvor vazifalari belgilab berildi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog'liq. Shuning uchun ham bugungi kunda jamiyatimizda o'qituvchilarning nufuzini oshirish, ularning mehnatini munosib rag'batlantirishga muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Ana shu nuqtai nazardan, Yurtboshimiz tomonidan bir qator me'yoriy hujjatlar imzolandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son, 2020-yil 29-oktabrda qabul qilingan "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son, 2020 yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son, 2021-yil 25- yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son Qarorlari ta'lim tizimida eng zamonaviy, ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor berildi.

Tizimdagi yangi strategiyasi mohiyati shuki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tahsil oladigan har bir yosh, har bir shaxs hayotda o'z o'rnini topishi, avvalo, o'zi daromad qilishi, shu orqali iqtisodiy yuksalishga xizmat qilishi, o'z mehnati bilan hayoti farovonligini ta'minlab, pirovard natijada jamiyat rivojlanishiga munosib hissa qo'shishi lozim. Mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni aniqlash takomillashtirilmoqda va aynan ish o'rinlari uchun o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashning xalqaro tajribalarga asoslangan yangi mexanizmlari joriy etilmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda hamda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, ta'lim oluvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, ta'lim tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida o'qituvchilarning standartlari ishlab chiqilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisining kasbiy standartlari – ta'lim sifatini boshqarish va uning uzluksizligini ta'minlab beruvchi muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur kasbiy standart O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi qaror loyihasi hamda "O'zbekiston Respublikasida Milliy malaka tizimining faoliyatini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar"ga (ID-1600) asoslanadi.

“Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi» kasbiy standarti– umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisining ta’lim jarayonini prognozlash, loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni belgilaydi.

“Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi» kasbiy standarti maktab o‘qituvchilarini baholash, attestasiyadan o‘tkazish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun asos sifatida ishlab chiqilgan, mazkur kasbiy standart maktab o‘qituvchisining rivojlanishi uchun impuls vazifasini o‘taydi. “Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi» kasbiy standarti umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqish, kasbiy sertifikatlash va ularning malaka darajalariga doir mezonlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

Kasbiy standartda o‘qituvchi faoliyati to‘rtta sohaga ajratiladi:

kasbiy faoliyatga doir bilimlar;

kasbiy faoliyatda o‘quv jarayonini tashkil qilish;

kasbiy faoliyatda tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish;

kasbiy faoliyatda o‘z-o‘zini rivojlantirish.

O‘qituvchi faoliyatining yuqorida ko‘rsatilgan to‘rtta soha bo‘yicha tavsiflari quyidagi malaka toifalariga ko‘ra belgilanadi: mutaxassis, ikkinchi, birinchi, oliy. Kasbiy standart o‘qituvchining malaka toifalariga ko‘ra kasbiy o‘sishi va malaka oshirishini rejalashtirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi faoliyatiga doir hujjatlar yig‘ma jildi jamg‘ariluvchanlik va izchillikni ifodalab malaka toifalariga ko‘tarilishdagi ta’lim olishning uzviyligini ta’minlaydi.

O‘qituvchining kasbiy faoliyatga doir kompetensiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, umumiy kompetensiyalar: kommunikativ, AKT va media savodxonlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z ustida ishlash, mas’uliyat va moslashuvchanlik, inklyuziv ta’limni joriy etish, huquqiy kompetensiyalar va xususiy kompetensiyalari: pedagogik, o‘quvchi(tarbiyalanuvchi)larning kompetensiyalarini xolisona baholash kompetensiyalar.

Mazkur hujjatlar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoniga yangicha yondashuv uchun huquqiy asos bo‘ldi. Malaka oshirish tizimida eskirgan, “davrini yashab bo‘lgan” andozalardan voz kechildi. Mamlakatimizda ta’lim tizimida o‘qitish, muallimga nisbatan hurmat muhitini yaratish borasida ulug‘vor ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun o‘qituvchining mavqei ortib, jamiyatdagi eng obro‘li insonga aylanib borayotgani ayni haqiqatdir.